MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SOHASIDA IDORALARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH .. 138
Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SUN’IY INTELLEKTGA TAYYORGARLIGI VA INTEGRATSIYA DARAJASINI BAHOLOVCHI KOMPOZIT INDEKS (AI-TII) METODIKASI 147
Madrahimova Onajon Javlon qizi
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI VA O‘RNI: TALAB, INVESTITSIYA VA INTEGRATSIYA KANALLARI TAHLILI 153
Nazarov Ulug‘bek Akbar o‘g‘li
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH YO‘LLARI 159
Aitimbetob Koyshibek Orazbekovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINING HUDUDIY NOMU-TANOSIBLIGI VA 2040-YILGACHA BELGILANGAN MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA ERISHISH MASALALARI 166
Abdimaitov Saidumarxon Mansur o‘g‘li
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМ РИСКОМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 171
Курбонов Илхом Жумакулович
TA’LIM XARAJATLARI SAMARADORLIGI: XALQARO QIYOSIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL SABOQLAR 177
Temirov Muhammad Maxmud o‘g‘li
KASE VA UCI INDEKSLARIDA RISK, O‘ZGARUVCHANLIK VA PROGNOZ BARQARORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 182
Raximov Abduxalil Toshbotirovich
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK TARMOQLARINING 2030-YILGACHA RIVOJLANISHINI ARIMA VA SARIMA MODELLARI ASOSIDA PROGNOZLASH 192
Xaitova Rushana O‘ktamovna
MINTAQADA AHOLINING TAKROR BARPO BO‘LISHI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO ALOQASI 196
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
DAVLAT XARIDLARIDA BUDJET TEJAMKORLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING PANEL EKONOMETRIK TAHLILI 201
Axmedjanov Sardorbek
SUN’IY INTELLEKTNING JAHON MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IQTISODIY O‘SISH, BANDLIK VA DAROMADLAR TENGSIZLIGI 206
Sohibov Azizbek, Karimova Komila
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 211
Axmedov Xasan Ruzibayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ТЕРМОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОМЫШЛЕННАЯ ПРОВЕРКА ДЕСУЛЬФУРАЦИИ СТАЛИ 20ГЛ КАЛЬЦИЙ-АЛЮМИНАТНЫМ ФЛЮСОМ КРФ-90 В ИНДУКЦИОННОЙ ТИГЕЛЬНОЙ ПЕЧИ 216
Уразбаев Талгат, Турсунов Нодиржон, Абдуназаров Бахтиёр, Абдухаликов Ердаулет
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 222
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
MONETAR SIYOSAT SHOKLARINING O‘ZBEKISTON EKSPORTI VA IMPORTIGA ASIMMETRIK TA’SIRI 227
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi
YANGI LOGISTIKA MARKAZI ORQALI YUK TASHISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI 232
Zohidov Muhriddin, Jumayev Sherzod
BANKLARDA SUN’IY INTELLEKTNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYAVIY RIVOJLANISH UCHUN MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARII . 240
Mirsoatov Alisher Qudratullayevich
KORXONALARDA EKOLOGIK XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 249
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
MAROSIM VA URF-ODATLARDA GASTRONOMIK KONSEPTLARNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI .. 254
Halimova Mahbuba To‘raqulovna
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI 259
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI ... 265
Sharipov Zafar Bazarovich
ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ СОСТАВА ГАЗОВОЙ ФАЗЫ ПРИ ДУГОВОЙ СВАРКЕ ПОД СЛОЕМ ФЛЮСА НИЗКОУГЛЕРОДИСТЫХ И НИЗКОЛЕГИРОВАННЫХ СТАЛЕЙ 271
Эрматов Зиёдулла, Рахматуллаева Нозима, Гальперин Леонид
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 276
Abduganiyev Oybek Akmaljon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASINING O‘ZIGA XOS TASNIFLANISHI 281
Raxmonov Aziz Iskandarovich
XIZMATLAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 286
Axmedov Mexrojxon Ma’rufjon o‘g‘li
SUT TANNARXINING OMILLI TAHLILI VA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH ZAXIRALARI (SAMARQAND VILOYATIDAGI FERMER XO‘JALIGI MISOLIDA) 290
Karimov Ikromjon, Alikulov Abdimo‘min
AGROKLASTERLARDA MATERIALLAR HARAKATI VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI BO‘YICHA SEGMENTAR HISOBOT TUZISH TARTIBI 295
Aliqulov G‘olib Abdimo‘minovich
SUG‘URTA KOMPANIYASINING ANDERRAYTING NATIJALARI VOLATILLIGINI KAMAYTIRISHDA NOMUTANOSIB QAYTA SUG‘URTA DASTURINI OPTIMALLASHTIRISH (JAVOBGARLIK PORTFELI MISOLIDA) 303
Ubaydullaeva Nargiza Ravshanovna
SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHDA ELASTIKLIK VA MOSLASHUVCHANLIK KO‘RSATKICHLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 308
Allakuliyev Akmal Baltayevich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIMDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 313
Kamilxo'jayeva Malikaxon, Yuldashov Isomiddin
WAYS TO IMPROVE THE MARKETING EFFECTIVENESS OF "O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" JSC 319
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li
TA'LIM XARAJATLARINI DASTURIY BUDJETLASHTIRISH ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY YECHIMLARI: XORIJIY TAJRIBA VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH 324
Quvatov Feruz Qaxramonovich
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ИНВЕСТОРЫ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ 328
Камилова Севара Анваровна
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 339
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA XARAJATLAR VA ZAXIRA MABLAG'LARI NISBATINI MAQBULLASHTIRISH 345
Toshpulatov Farruxbek Asronbek o'g'li
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОГО ТРУДА И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КВАЛИФИКАЦИОННЫХ ТРЕБОВАНИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА 351
ПУЛАТОВ Дилшод Акмалевич
ФИНАНСОВАЯ ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ УСЛОВНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 358
Алиев Улугбек Маннонович
DAVLAT VA XUSUSIY BANKLAR AKSIYALARINING DAROMADLILIGI, RISKI VA BOZOR BAHOSI 363
Abdullayev Suxrobiddin Ismoilovich
QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA DAROMADLARNI TAN OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 371
Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li
TIJORAT BANKLARI XARAJAT SAMARADORLIGINING XALQARO QIYOSIY TAHLILI 376
Absamatov Asqar Ergashovich
TEMIR YO'L MASHINASOZLIGINI SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 387
Yuldasheva S.A
MECHANISMS FOR INTRODUCING INNOVATIVE MARKETING APPROACHES IN HOTEL BRAND DEVELOPMENT: DIFFUSION, ADOPTION DRIVERS AND THE ADOPTION-INTEGRATION GAP 393
Ergashev Oybek Mamarasul ugli
UMIDSIZ QARZNI HISOBDAN CHIQARISH VA PENYANI DAROMAD SIFATIDA TAN OLISHNING TO'RT BELGILI MEZONLAR TIZIMI 401
Suyunov Jaloliddin O'ktam o'g'li
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 407
Qulliyev Anvar Zayniddinovich
BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI 413
Temirova Sevara Baxodirovna
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 420
Butayev Javlonbek Inatillo o'g'li
MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI 427
Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Shoydaliyev Umid Eshquvat o‘g‘li
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi fiskal, institutsional va tashkiliy-iqtisodiy omillar hamda hududlarning soliq salohiyatidan samarali foydalanish masalalari kompleks tadqiq etilgan.

Tadqiqotda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, soliq tushumlarining barqarorligini ta’minlash, yashirin soliq bazasini aniqlash va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar asoslangan. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish orqali mahalliy darajada soliq tushumlarini ko‘paytirishdan manfaatdorlikni kuchaytirish hamda qo‘shimcha soliq manbalarini aniqlashni rag‘batlantirish mexanizmi yoritilgan. Shuningdek, hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ayrim xarajatlarni tegishli mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtirish orqali hududiy boshqaruv organlarining fiskal mas’uliyatini kuchaytirish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Maqolada norasmiy bandlikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini rasmiylashtirish hamda qo‘shimcha ro‘yxatga olingan soliq to‘lovchilardan undiriladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining bir qismini mahalla byudjetlarida qoldirish asosida hududlarning daromad manbalarini kengaytirish mexanizmi taklif etilgan.

Tadqiqot doirasida 2020-2024-yillarda mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha hisoblangan summalar, soliq tushumlari yig‘iluvchanligi, hududiy boshqaruv xarajatlari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ko‘rsatkichlari qiyosiy va iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Olingan natijalar mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish, hududiy moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: mahalliy byudjet, mahalliy byudjetlar daromadlari, byudjet daromadlari barqarorligi, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar, mahalliy byudjetlarning daromad bazasi, moliyaviy mustaqillik, fiskal barqarorlik, hududiy soliq salohiyati, soliq siyosati, soliq ma’murchiligi, soliq bazasini kengaytirish, yashirin soliq bazasi, soliqlar yig‘iluvchanligi, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, mahalla byudjeti, hududiy moliyaviy manfaatdorlik, soliq va kadastr organlari, byudjet xarajatlarini optimallashtirish, norasmiy bandlik, bandlikni rasmiylashtirish, qo‘shimcha soliq tushumlari, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi, hududiy rivojlanish, iqtisodiy-statistik tahlil.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются финансово-экономические механизмы повышения устойчивости доходов местных бюджетов, фискальные, институциональные и организационно-экономические факторы, влияющие на их формирование, а также вопросы эффективного использования налогового потенциала территорий.

В исследовании обоснованы научно-методические подходы, направленные на укрепление доходной базы местных бюджетов, обеспечение стабильности налоговых поступлений, выявление скрытой налоговой базы и повышение собираемости налогов. В частности, раскрыт механизм усиления заинтересованности на местном уровне в увеличении налоговых поступлений и стимулирования выявления дополнительных источников налогообложения посредством направления определённой части поступлений от налогов на имущество и землю физических лиц в бюджеты махаллей. Кроме того, научно обоснованы возможности совершенствования системы финансирования деятельности территориальных налоговых и кадастровых органов, усиления фискальной ответственности органов территориального управления за счёт финансирования отдельных расходов из соответствующих местных бюджетов, повышения эффективности использования бюджетных средств и оптимизации расходов.

В статье предложен механизм расширения доходных источников территорий на основе сокращения неформальной занятости, официального оформления новых рабочих мест и оставления части поступлений от налога на доходы физических лиц, взимаемого с дополнительно зарегистрированных налогоплательщиков, в бюджетах махаллей.

В рамках исследования на основе сравнительных и экономико-статистических методов проанализированы показатели начисленных сумм налогов на имущество и землю, собираемости налоговых поступлений, расходов территориального управления, а также налога на доходы физических лиц за 2020–2024 годы. Полученные результаты позволяют сформировать научно-практические предложения, направленные на повышение доходного потенциала местных бюджетов, совершенствование налогового администрирования, усиление территориальной финансовой заинтересованности и обеспечение финансовой устойчивости местных бюджетов.

Ключевые слова: местный бюджет, доходы местных бюджетов, устойчивость бюджетных доходов, финансово-экономические механизмы, доходная база местных бюджетов, финансовая самостоятельность, фискальная устойчивость, налоговый потенциал территорий, налоговая политика, налоговое администрирование, расширение налоговой базы, скрытая налоговая база, собираемость налогов, налог на имущество физических лиц, земельный налог физических лиц, налог на доходы физических лиц, бюджет махалли, территориальная финансовая заинтересованность, налоговые и кадастровые органы, оптимизация бюджетных расходов, неформальная занятость, легализация занятости, дополнительные налоговые поступления, эффективность использования бюджетных средств, территориальное развитие, экономико-статистический анализ.

Abstract. This article provides a comprehensive study of the financial and economic mechanisms for enhancing the stability of local budget revenues, the fiscal, institutional, and organizational-economic factors influencing their formation, and the effective utilization of the tax potential of territories.

The study substantiates scientific and methodological approaches aimed at strengthening the revenue base of local budgets, ensuring the stability of tax revenues, identifying the concealed tax base, and improving tax collection rates. In particular, it examines a mechanism for increasing local incentives to enhance tax revenues and encourage the identification of additional tax sources by allocating a certain proportion of personal property and land tax revenues to mahalla budgets. Furthermore, the article scientifically substantiates the possibilities of improving the financing system of regional tax and cadastral authorities, strengthening the fiscal accountability of territorial administrative bodies by financing certain expenditures from relevant local budgets, increasing the efficiency of budgetary resource utilization, and optimizing expenditures.

The article proposes a mechanism for expanding territorial revenue sources by reducing informal employment, formalizing new jobs, and retaining a portion of personal income tax revenues collected from newly registered taxpayers in mahalla budgets.

Within the framework of the study, the assessed amounts of property and land taxes, tax revenue collection rates, territorial administrative expenditures, and personal income tax indicators for 2020-2024 were analyzed using comparative and economic-statistical methods. The findings make it possible to formulate scientific and practical recommendations aimed at enhancing the revenue potential of local budgets, improving tax administration, strengthening territorial financial incentives, and ensuring the financial sustainability of local budgets.

Keywords: local budget, local budget revenues, budget revenue stability, financial and economic mechanisms, local budget revenue base, financial autonomy, fiscal sustainability, regional tax potential, tax policy, tax administration, expansion of the tax base, concealed tax base, tax collection rates, personal property tax, personal land tax, personal income tax, mahalla budget, regional financial incentives, tax and cadastral authorities, optimization of budget expenditures, informal employment, formalization of employment, additional tax revenues, efficiency of budgetary resource utilization, regional development, economic-statistical analysis.

KIRISH

Bugungi kunda davlat moliyasini boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash, hududlarning fiskal salohiyatidan samarali foydalanish va mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasi, soliqqa tortish bazasi, byudjet daromadlarini shakllantirish imkoniyatlari hamda soliqlar yig‘iluvchanligidagi tafovutlar mahalliy byudjetlarning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon amaliyotida fiskal markazsizlashtirish, mahalliy daromad manbalarini kengaytirish, soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish hamda hududiy boshqaruv organlarining fiskal mas’uliyatini oshirish mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim yo‘nalishlari sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy soliqlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirishdan hududlarning manfaatdorligini kuchaytirish, yashirin soliq bazasini aniqlash va norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish orqali byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, soliq ma’murchiligini takomillashtirish hamda hududlarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirishga qaratilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida hududlarni rivojlantirish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish va mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Mazkur strategik vazifalar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlarning ichki moliyaviy imkoniyatlarini ishga solish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va byudjet daromadlarining barqaror manbalarini rivojlantirish zarurligini belgilab beradi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va

yer soliqlarining fiskal imkoniyatlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mazkur soliqlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirishdan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirish, soliq solish obyektlarini to‘liq hisobga olish hamda yashirin soliq bazasini aniqlash hududlarning qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-458-son qarori doirasida mahalla byudjetlari daromadlarini shakllantirish bilan bog‘liq mexanizmlarning joriy etilishi mahalliy darajada moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirishga qaratilgan institutsional yondashuvlardan biri hisoblanadi [3]. Bunda soliq tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish, soliq bazasini kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlashda hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish vakolatlari va mas’uliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda byudjet xarajatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni bilan bog‘liq byudjet munosabatlaridagi o‘zgarishlar ayrim davlat organlari va tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini qayta ko‘rib chiqish, hududlarning fiskal mas’uliyatini kuchaytirish hamda mahalliy darajada daromad va xarajatlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni mustahkamlash masalalarini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi [4]. Bunday sharoitda mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, hududiy boshqaruv xarajatlarini maqbullashtirish imkoniyatlarini baholash ham muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirishning muhim zaxiralaridan biri norasmiy bandlikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini rasmiylashtirish va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasini kengaytirish bilan bog‘liqdir. Mehnat faoliyatini rasmiylashtirish orqali qo‘shimcha soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ular tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i tushumlarining bir qismini mahalla byudjetlarida qoldirish va ushbu jarayondan hududiy boshqaruv tuzilmalarining manfaatdorligini oshirish mahalliy byudjetlar daromadlarining barqaror manbalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, 2024-yil 14-martda Sayxunobod tumanida ilgari surilgan hududiy iqtisodiy faollik va bandlikni kengaytirishga oid tashabbuslar doirasida mazkur masalalarni ilmiy jihatdan o‘rganish alohida ahamiyatga ega [5].

Shu bilan birga, amaliyotda mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha soliq solish obyektlarining to‘liq hisobga olinmasligi, yashirin soliq bazasini aniqlash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmasligi, mahalliy darajada qo‘shimcha soliq tushumlarini shakllantirishdan manfaatdorlik mexanizmlarining takomillashtirishga muhtojligi hamda norasmiy bandlik hisobiga soliq salohiyatining to‘liq ishga solinmasligi kabi masalalar mavjud. Hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirishda daromadlarni ko‘paytirish va xarajatlar samaradorligini oshirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish ham ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Mazkur holatlar mahalliy byudjetlarning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks takomillashtirish, soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish hamda mahalliy moliyaviy manfaatdorlikka asoslangan rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish doirasida mol-mulk va yer soliqlari tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish orqali soliq bazasini kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligini rag‘batlantirish, hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish asosida fiskal mas’uliyat va byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish, shuningdek, norasmiy bandlikni rasmiylashtirish hisobiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarini ko‘paytirish hamda ushbu tushumlarning bir qismini mahalla byudjetlarida qoldirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, hududlarning fiskal salohiyatidan samarali foydalanish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash, hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, soliq salohiyatidan samarali foydalanish hamda davlat boshqaruvining turli darajalari o‘rtasida moliyaviy vakolatlarni oqilona taqsimlash masalalari davlat moliyasi nazariyasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan fiskal markazsizlashtirish, mahalliy soliqlarni boshqarish, byudjet daromadlari bazasini kengaytirish, hududiy moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish va soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlari keng tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy qarashlar mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat moliyasi nazariyasining yirik namoyandalaridan biri R.A. Musgrave o‘zining *The Theory of Public Finance* nomli ilmiy asarida davlat moliyasining resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy

barqarorlikni ta’minlash funksiyalarini tizimli ravishda asoslab bergan [6]. Uning nazariy yondashuvidan kelib chiqib, davlat boshqaruvining turli darajalari o‘rtasida moliyaviy vakolatlarni taqsimlashda daromad manbalari, xarajat majburiyatlari va davlat xizmatlarini moliyalashtirish imkoniyatlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarash mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish bilan bir qatorda, hududiy boshqaruv organlarining moliyaviy javobgarligini kuchaytirish va byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ilmiy jihatdan izohlash imkonini beradi.

Fiskal federalizm nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan W.E. Oates *Fiscal Federalism* asarida davlat xizmatlarini moliyalashtirish va taqdim etishda boshqaruv darajalari o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotining iqtisodiy asoslarini tadqiq etgan [7]. Olimning yondashuviga ko‘ra, mahalliy ehtiyojlar va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish ayrim sharoitlarda resurslar taqsimoti samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq fiskal markazsizlashtirishning ijobiy natijalari mahalliy boshqaruv organlarining yetarli moliyaviy resurslarga ega bo‘lishi, ularning vakolatlari aniq belgilanishi hamda moliyaviy mas’uliyat mexanizmlari shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu jihatdan, mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini rivojlantirish hududiy moliyaviy mustaqillikni ta’minlashning zarur sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ch.M. Tiebout *A Pure Theory of Local Expenditures* nomli ilmiy maqolasida mahalliy davlat xizmatlari va soliq sharoitlarining hududlar bo‘yicha farqlanishi aholining hududiy tanloviga ta’sir ko‘rsatishini nazariy jihatdan asoslagan [8]. Mazkur model mahalliy soliqlar, hududiy davlat xizmatlari va aholining iqtisodiy manfaatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu nazariyaning aholining erkin harakatlanishi, hududlar to‘g‘risida yetarli axborotga ega bo‘lishi va davlat xizmatlarini tanlash imkoniyatiga doir farazlari amaliyotda har doim ham to‘liq bajarilmaydi. Shuning uchun mahalliy byudjetlar daromadlarini boshqarishda mazkur yondashuvdan foydalanish hududlarning real iqtisodiy, demografik va institutsional sharoitlarini hisobga olishni talab etadi.

R.W. Bahl va R.M. Bird tomonidan *Subnational Taxes in Developing Countries: The Way Forward* nomli tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda hududiy soliqlar tizimini takomillashtirish, mahalliy daromad manbalarini kengaytirish hamda quyi boshqaruv darajalarining soliq vakolatlarini mustahkamlash masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan [9]. Olimlarning fikricha, fiskal markazsizlashtirishning barqaror iqtisodiy natijalariga erishish mahalliy boshqaruv organlarining real daromad vakolatlariga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bunda mol-mulk soliqlari mahalliy darajada qo‘llash uchun muhim fiskal vositalardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv asosida mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha soliq solish obyektlarini to‘liq hisobga olish, yashirin soliq bazasini aniqlash, tushumlar yig‘iluvchanligini oshirish hamda mahalliy darajada qo‘shimcha soliq manbalarini aniqlashdan moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish zarurligini asoslash mumkin.

A. Shah muharrirligida nashr etilgan *Local Budgeting* ilmiy to‘plamida mahalliy byudjetlashtirish jarayonlari, fiskal intizom, moliyaviy hisobdorlik, byudjet shaffofligi va davlat mablag‘laridan foydalanish natijadorligi masalalari kompleks tadqiq etilgan [10]. Mazkur ilmiy yondashuvda mahalliy byudjet tizimining samaradorligi daromadlarni rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariy qarashlar hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, byudjet xarajatlarini maqbullashtirish va hududiy moliyaviy mas’uliyatni kuchaytirishning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

R.W. Boadway, S.S. Roberts va A.M. Shah tomonidan *Fiscal Federalism: Dimensions of Tax Reform in Developing Countries* nomli ilmiy ishda soliq vakolatlarini davlat boshqaruvining turli darajalari o‘rtasida taqsimlashning iqtisodiy tamoyillari tadqiq etilgan [11]. Mualliflar soliqlarni tegishli boshqaruv darajalariga biriktirishda iqtisodiy samaradorlik, umumdavlat manfaatlari, hududlararo tenglik va fiskal muvofiqlikni hisobga olish zarurligini asoslaydilar. Mazkur qarashlar mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini kengaytirish bilan bir qatorda, hududiy xarajat majburiyatlarini moliyalashtirish manbalarini iqtisodiy jihatdan asosli belgilashning muhimligini ko‘rsatadi. Bunda ayrim davlat organlari xarajatlarini respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga o‘tkazishning samaradorligi faqat moliyalashtirish manbasi o‘zgarganligi bilan emas, balki xarajatlar, boshqaruv natijadorligi va qo‘shimcha soliq tushumlarining o‘zgarishi orqali baholanishi lozim.

Soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash va soliqqa tortilishi murakkab bo‘lgan iqtisodiy subyektlarning fiskal tizimga ta’siri J. Alm, J. Martinez-Vazquez hamda F. Schneider tomonidan *Sizing the Problem of the Hard-to-Tax* nomli tadqiqotda o‘rganilgan [12]. Olimlar soliqqa tortilishi qiyin bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlarining keng tarqalishi byudjet daromadlari, soliq tizimining tarkibi va resurslar taqsimoti samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini asoslaganlar. Ushbu ilmiy yondashuv norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, qo‘shimcha soliq to‘lovchilarni hisobga olish hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasini kengaytirish orqali mahalliy byudjetlarning fiskal salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi ro‘yxatdan o‘tgan soliq to‘lovchilar, yaratilgan ish o‘rinlari, hisoblangan soliq majburiyatlari va amalda undirilgan soliq tushumlari o‘zaro farqlanuvchi ko‘rsatkichlar ekanligini hisobga olish talab etiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlashda fiskal markazsizlashtirish, mahalliy soliqlarni boshqarish, soliq vakolatlarini taqsimlash, byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish va norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish masalalari o‘zaro bog‘liq iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi. Biroq mazkur tadqiqotlarning asosiy qismi ushbu yo‘nalishlarning alohida nazariy yoki institutsional jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning O‘zbekiston mahalliy byudjet tizimidagi o‘ziga xos mexanizmlar bilan uyg‘unlashuvi qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Xususan, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishda mol-mulk va yer soliqlari tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish orqali mahalliy moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish, hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish asosida fiskal mas’uliyat va xarajatlar samaradorligini oshirish hamda norasmiy bandlikni rasmiylashtirish natijasida shakllanadigan qo‘shimcha daromad solig‘i tushumlaridan mahallalarning manfaatdorligini ta’minlash masalalarini yagona moliyaviy-iqtisodiy mexanizm doirasida o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishga qaratilgan uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni kompleks asoslashdan iborat. Birinchi yo‘nalish mahalliy soliqlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirishdan mahallalarning moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirishga, ikkinchi yo‘nalish hududiy boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali fiskal mas’uliyatni oshirishga, uchinchi yo‘nalish esa norasmiy bandlikni rasmiylashtirish va qo‘shimcha soliq to‘lovchilarni jalb etish hisobiga daromad solig‘i bazasini kengaytirishga qaratilgan. Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish, mavjud fiskal zaxiralarni aniqlash va hududlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

TADQIQOT METODIKASI

Mazkur tadqiqotda mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, hududlarning fiskal salohiyatidan samarali foydalanish, soliq bazasini kengaytirish hamda mahalliy darajada moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni asoslash maqsadida tizimli, qiyosiy, iqtisodiy-statistik va hisob-kitob usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini davlat moliyasi, fiskal markazsizlashtirish, mahalliy soliqlarni boshqarish, soliq ma’murchiligi va byudjet xarajatlari samaradorligiga oid nazariy qarashlar, shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan institutsional yondashuvlar tashkil etadi. Bunda mahalliy byudjetlar daromadlarining barqarorligi soliq tushumlari hajmining o‘sishi bilangina emas, balki soliq bazasining kengayishi, soliqlar yig‘iluvchanligi, daromad manbalarining takroriy shakllanish imkoniyati hamda byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liq iqtisodiy jarayon sifatida o‘rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini 2020-2024-yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha hisoblangan summalar, hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari, soliqlar bo‘yicha hisoblangan va amalda undirilgan mablag‘lar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari hamda qo‘shimcha soliq to‘lovchilar soniga oid ma’lumotlar tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar tadqiqot doirasida tanlangan 14 ta tuman va shaharning soliq salohiyatini baholash, hududiy moliyaviy manfaatdorlik mexanizmlarini o‘rganish hamda Sirdaryo viloyatida bandlikni rasmiylashtirish hisobiga yuzaga keladigan qo‘shimcha fiskal imkoniyatlarni aniqlash uchun qo‘llanildi. Tadqiqotda soliq tushumlarining mutlaq hajmi, o‘sish sur’atlari, qo‘shimcha hisoblangan soliq summalari va soliqlar yig‘iluvchanligi ko‘rsatkichlari o‘zaro qiyoslandi.

Tadqiqotning birinchi yo‘nalishida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish orqali mahalliy darajada fiskal manfaatdorlikni kuchaytirish mexanizmi o‘rganildi. Bunda 2020-2024-yillarda tanlangan hududlar bo‘yicha hisoblangan mol-mulk va yer soliqlari summalarining dinamikasi, qo‘shimcha aniqlangan soliq bazasi hisobiga yuzaga kelgan soliq majburiyatlari hamda tushumlar yig‘iluvchanligidagi o‘zgarishlar qiyosiy tahlil qilindi. Soliq bazasining kengayishi natijasida qo‘shimcha hisoblangan summalar bilan byudjetga amalda kelib tushgan mablag‘lar bir-biridan farqlangan holda baholandi. Mazkur yondashuv mahalla byudjetlariga yo‘naltiriladigan moliyaviy resurslar bilan mahalliy darajada soliq solish obyektlarini aniqlash va soliq majburiyatlarini bajarishni rag‘batlantirish o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning ikkinchi yo‘nalishida hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari o‘rganildi. Bunda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tegishli xarajatlarning yillar bo‘yicha dinamikasi, ularni moliyalashtirish manbalarini qayta taqsimlash imkoniyatlari hamda xarajatlarni maqbullashtirishning hisob-kitob natijalari qiyosiy baholandi. Xususan, xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha hisoblangan potensial iqtisodiy samara bilan amalda amalga oshirilgan byudjet xarajatlari o‘rtasidagi farq alohida hisobga olindi. Ushbu metodik yondashuv

moliyalashtirish manbalarini o‘zgartirishning fiskal natijalarini baholashda xarajatlarning shunchaki bir byudjet darajasidan boshqasiga o‘tkazilishi va byudjet mablag‘larining real tejalishini bir xil iqtisodiy natija sifatida talqin etmaslikka asoslandi.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishda soliqlar yig‘iluvchanligini baholash uchun hisoblangan soliq majburiyatlari va amalda undirilgan soliq tushumlari o‘rtasidagi nisbatdan foydalanildi. Soliqlar yig‘iluvchanligi darajasi amalda undirilgan soliq summasining hisoblangan soliq summasiga nisbati orqali foizlarda ifodalandi. Mazkur ko‘rsatkichning yillar bo‘yicha o‘zgarishi soliq ma’murchiligi natijadorligini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida qo‘llanildi. Bunda yig‘iluvchanlik darajasining o‘zgarishi foiz punktlarida, soliq tushumlarining o‘sishi esa mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarda baholandi. Shu bilan birga, yig‘iluvchanlikning oshishi faqat moliyalashtirish mexanizmidagi o‘zgarishlar natijasi ekanligi oldindan faraz qilinmadi, chunki mazkur ko‘rsatkichga soliq bazasining kengayishi, iqtisodiy faollik va soliq ma’murchiligidagi boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqotning uchinchi yo‘nalishida norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, qo‘shimcha soliq to‘lovchilarni hisobga olish hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining bir qismini mahalla byudjetlarida qoldirish orqali hududlarning moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirish mexanizmi tahlil qilindi. Ushbu yo‘nalishda Sirdaryo viloyatining 2020-2024-yillardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari, soliq to‘lovchilar soni, qo‘shimcha hisobga olingan soliq to‘lovchilar va ular hisobiga shakllangan qo‘shimcha tushumlar dinamikasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlilda qo‘shimcha ro‘yxatga olingan soliq to‘lovchilar soni, rasmiylashtirilgan ish o‘rinlari va qo‘shimcha soliq tushumlari alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar sifatida baholandi. Bu esa bandlikni rasmiylashtirish natijalarini fiskal samaradorlik bilan bog‘lashda ko‘rsatkichlarning mazmunan farqlanishini hisobga olish imkonini berdi.

Tadqiqotda dinamik tahlil usuli orqali soliq tushumlari va soliq majburiyatlarining yillar davomida o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi, qiyosiy tahlil yordamida hududlar hamda soliq turlari bo‘yicha farqlar baholandi, iqtisodiy-statistik usullar asosida mutlaq o‘sish, nisbiy o‘sish sur’atlari va yig‘iluvchanlik darajasining o‘zgarishi hisoblandi. Tizimli yondashuv orqali mahalliy soliqlar, byudjet xarajatlarini moliyalashtirish va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish jarayonlarining mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligiga ta’sir etuvchi o‘zaro bog‘liq jihatlari umumlashtirildi. Normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida esa mahalla byudjetlari daromadlarini shakllantirish, tegishli xarajatlarni moliyalashtirish hamda hududiy bandlikni kengaytirishga oid institutsional o‘zgarishlarning iqtisodiy mazmuni o‘rganildi.

Mazkur metodik yondashuvning o‘ziga xos jihati mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishga qaratilgan uchta moliyaviy-iqtisodiy mexanizmni yagona tadqiqot doirasida o‘zaro bog‘liq holda baholashdan iborat. Bunda mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha mahalliy manfaatdorlikni kuchaytirish, hududiy boshqaruv organlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda norasmiy bandlikni rasmiylashtirish orqali daromad solig‘i bazasini kengaytirish mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha fiskal imkoniyatlarini shakllantiruvchi yo‘nalishlar sifatida tadqiq etildi. Olingan tahliliy natijalar mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish, soliq ma’murchiligi samaradorligini kuchaytirish va hududiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslash uchun metodik zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash amaliyotini baholashda institutsional yondashuv ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv doirasida soliq ma’muriyatchiligi tizimi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy vakolatlari, normativ-huquqiy baza va fiskal rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahalliy darajada soliq bazasini kengaytirish, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va norasmiy bandlikni qonuniylashtirish orqali daromadlar barqarorligini ta’minlash mumkin.

1-jadval
Mol-mulk solig‘ining mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligiga ta’siri (mln.so‘mda)[1]

№	Tumanlar nomi	Hisoblangan						
		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	shundan, qo‘shimcha hisoblangan	2024-yil	shundan, qo‘shimcha hisoblangan
1.	Beruniy	3 397	3 623	5 237	7 834	1 567	10 402	2 080

1 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.	Andijon	3 999	4 314	2 785	8 714	1 525	17 024	2 979
3.	Olot	2 829	2 878	3 042	4 897	930	6 279	1 193
4.	Zomin	2 802	3 474	3 578	5 945	1 308	9 421	2 073
5.	Qarshi	6 343	8 964	9 133	12 847	2 312	17 721	3 190
6.	Karmana	2 935	3 301	3 122	6 903	1 312	8 700	1 653
7.	Uychi	4 202	4 322	4 039	6 903	1 519	9 266	2 038
8.	Urgut	10 317	12 791	12 502	22 276	4 678	28 372	5 958
9.	Jarqo‘rg‘on	3 216	3 330	4 570	6 249	1 312	9 402	1 974
10.	Sayxunobod	1 774	1 785	1 666	2 619	524	3 033	607
11.	Bo‘ka	2 279	2 326	2 983	3 880	854	7 556	1 662
12.	Bag‘dod	3 682	3 814	4 146	7 323	1 465	12 886	2 577
13.	Bog‘ot	4 115	4 714	4 926	7 982	1 517	10 141	1 927
14.	Uchtepa	12 547	14 223	15 647	22 110	4 201	46 069	8 753
JAMI		**64 437**	**73 859**	**77 376**	**126 481**	**25 022**	**196 272**	**38 665**

Jadval ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, mol-mulk solig‘ining 2020-2024-yillar davomida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyatini tumanlar kesimida ochib beradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu soliq turi yildan yilga barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, mahalliy byudjetlarning o‘z daromadlari bazasini mustahkamlashda muhim manba sifatida shakllanib bormoqda.

2020-yilda jadvalda qamrab olingan tumanlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i hisoblangan tushumlarining jami hajmi 64 437 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 73 859 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 9 422 mlrd so‘mga yoki 14,6 foizga o‘sgan. Bu holat mol-mulk solig‘ini hisoblash bazasining kengayishi, soliq ma’muriychiligining takomillashuvi hamda ko‘chmas mulk obyektlarini inventarizatsiya qilish ishlari samaradorligi oshgani bilan izohlanadi (1-jadval).

2022-yilda mol-mulk solig‘i tushumlari 77 376 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, o‘sish sur’ati oldingi yilga nisbatan nisbatan sekinlashgan (3 517 mlrd so‘m yoki 4,8 foiz). Mazkur holat ayrim tumanlarda iqtisodiy faollikning pasayishi, shuningdek, mulk obyektlari hisobini yangilash ishlarining muayyan darajada barqaror bosqichga o‘tishi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

2023-yilga kelib mol-mulk solig‘i tushumlarida keskin o‘sish kuzatilgan. Xususan, jami hisoblangan tushumlar 126 481 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2022-yilga nisbatan 49 105 mlrd so‘mga yoki qariyb 63,4 foizga oshgan. Ushbu o‘sishning asosiy manbai sifatida jadvalda alohida ko‘rsatilgan 25 022 mlrd so‘m miqdoridagi qo‘shimcha hisob-kitoblar xizmat qilgan. Bu esa “yashirin” mulk obyektlarini aniqlash, kadastr ma’lumotlarini soliq organlari ma’lumotlari bilan integratsiya qilish hamda mahalla darajasida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali soliq bazasini kengaytirish imkoniyati mavjudligini amalda isbotlaydi.

2024-yilda mazkur tendensiya yanada mustahkamlangan. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mol-mulk solig‘i bo‘yicha jami hisoblangan tushumlar 196 272 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 69 791 mlrd so‘mga yoki 55,2 foizga o‘sgan. Ayniqsa, 2024-yilda qo‘shimcha hisoblangan mol-mulk solig‘i hajmining 38 665 mlrd so‘mga yetgani e’tiborga molikdir. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 13 643 mlrd so‘mga ko‘p bo‘lib, soliq ma’muriychiligida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, jumladan, mahalla byudjeti tizimi joriy etilishi hamda hududiy soliq organlarining rag‘batlantirilishi samarali natija berganini ko‘rsatadi.

Tumanlar kesimida tahlil qilinganda, ayrim hududlarda mol-mulk solig‘i tushumlarining yuqori sur’atlarda o‘sgani kuzatiladi. Xususan, Uchtepa tumanida 2020-yilda 12 547 mlrd so‘m bo‘lgan tushumlar 2024-yilga kelib 46

069 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, 33 522 mlrd so‘mlik o‘sish qayd etilgan. Urgut tumanida esa ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 10 317 mlrd so‘mdan 28 372 mlrd so‘mgacha o‘sgan. Bunday hududlarda soliq bazasining yuqori darajada kengaygani, qurilish va ko‘chmas mulk bozorining faolligi, shuningdek, soliq organlari va mahalliy boshqaruv idoralari o‘rtasidagi hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, Sayxunobod tumanida mol-mulk solig‘i tushumlari nisbatan past darajada bo‘lib, 2020-yilda 1 774 mlrd so‘mni, 2024-yilda esa 3 033 mlrd so‘mni tashkil etgan. Biroq ushbu tumanda ham qo‘shimcha hisob-kitoblar hissasi mavjud bo‘lib, bu soliq bazasini yanada kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2020-2024-yillar davomida jadvalda aks etgan tumanlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i tushumlari 3 barobardan ortiq o‘sgan (64 437 mlrd so‘mdan 196 272 mlrd so‘mgacha). Bu holat mol-mulk solig‘ining mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini, shuningdek, ushbu soliq turi mahalliy byudjetlarning markaziy byudjet transfertlariga bo‘lgan qaramligini qisqartirishda muhim instrument sifatida namoyon bo‘layotganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur jadval ma’lumotlari asosida quyidagi muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, 2020-2024-yillar davomida mol-mulk solig‘i mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlovchi eng muhim soliq manbalaridan biri sifatida shakllandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, jadvalda qamrab olingan tumanlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i hisoblangan tushumlari 2020-yildagi 64 437 mlrd so‘mdan 2024-yilda 196 272 mlrd so‘mgacha o‘sib, qariyb 3,0 barobarga oshgan. Bu holat mol-mulk solig‘i mahalliy byudjetlarning o‘z daromadlari bazasini mustahkamlashda yuqori barqarorlik va prognozlanish imkoniyatiga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, mol-mulk solig‘i tushumlarining o‘sishida qo‘shimcha hisob-kitoblar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Xususan, 2023-yilda qo‘shimcha hisoblangan mol-mulk solig‘i hajmi 25 022 mlrd so‘mni, 2024-yilda esa 38 665 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar soliq ma’muriychiligini takomillashtirish, kadastr ma’lumotlarini raqamlashtirish va “yashirin” mulk obyektlarini aniqlash orqali soliq bazasini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini amalda isbotlaydi. Mazkur jarayon mahalliy byudjetlar daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlashda institutsional islohotlar samaradorligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, tumanlar kesimidagi tahlil mol-mulk solig‘i tushumlarida hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Uchtepa va Urgut tumanlarida 2024-yilda mol-mulk solig‘i tushumlari mos ravishda 46 069 mlrd so‘m va 28 372 mlrd so‘mni tashkil etib, yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etgan. Bu holat hududlarning iqtisodiy faolligi, qurilish va ko‘chmas mulk bozorining rivojlanish darajasi hamda soliq organlari bilan mahalliy boshqaruv institutlari o‘rtasidagi hamkorlik darajasi mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Ilmiy-metodologik tahlilda natijaviylik yondashuvi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv mahalliy byudjet daromadlarining faqat hajm jihatidan emas, balki ularning hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’siri nuqtayi nazaridan baholanishini nazarda tutadi. Xususan, daromadlar barqarorligining bandlik darajasi, aholi farovonligi, kam ta’minlangan oilalar sonining qisqarishi va ijtimoiy infratuzilma rivojiga ta’siri aniqlanadi. Bu holat byudjet daromadlari va ijtimoiy-iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytganda, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash amaliyotini ilmiy-metodologik tahlil qilish tizimli, dinamik, qiyosiy va institutsional yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

2-jadval
Yer solig‘ining mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligiga ta’siri (mlrd. so‘mda)[2]

№	Tumanlar nomi	Hisoblangan						
		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	shundan, qo‘shimcha hisoblangan	2024-yil	shundan, qo‘shimcha hisoblangan
1.	Beruniy	14 048	21 201	24 968	29 881	5 576	36 532	7 306
2.	Andijon	6 315	7 989	8 436	16 444	2 678	21 517	3 765
3.	Olot	5 661	7 379	10 121	15 184	2 685	19 553	3 715
4.	Zomin	11 516	14 542	16 414	23 520	5 174	24 811	5 458
5.	Qarshi	12 063	15 165	17 402	30 017	5 403	35 439	6 379
6.	Karmana	3 753	5 021	8 035	13 566	2 578	13 153	2 499
7.	Uychi	5 262	5 922	7 294	11 465	2 522	14 696	3 233
8.	Urgut	12 030	15 720	19 414	33 003	6 481	44 166	9 275
9.	Jarqo‘rg‘on	7 930	9 185	12 509	17 833	3 745	26 027	5 466
10.	Sayxunobod	3 682	4 275	5 736	9 298	1 860	10 667	2 133
11.	Bo‘ka	5 872	10 088	12 899	14 057	3 093	21 242	4 673
12.	Bag‘dod	5 434	7 700	14 104	19 388	3 878	24 592	4 918
13.	Bog‘ot	5 326	7 799	12 130	17 703	3 364	25 781	4 898
14.	Uchtepa	8 939	11 177	13 029	16 663	2 966	20 109	3 821
JAMI		**107 831**	**143 162**	**182 492**	268 024	52 003	338 285	67 542

Jadval ma’lumotlari 2020-2024-yillar davomida yer solig‘i hisoblangan tushumlarining tumanlar kesimida izchil o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu davrda yer solig‘i mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda barqaror manba sifatida namoyon bo‘lib, soliq ma’murchiligini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish hamda qo‘shimcha hisoblash mexanizmlarining joriy etilishi hisobidan sezilarli darajada oshgan.

2020-yilda jadvalda keltirilgan 14 ta tuman bo‘yicha yer solig‘i hisoblangan tushumlarining jami hajmi 107 831 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 143 162 mlrd so‘mga, 2022-yilda 182 492 mlrd so‘mga yetgan. Bu holat yer solig‘i bo‘yicha soliq bazasining bosqichma-bosqich kengayib borganligini va mahalliy byudjetlarning ushbu soliq turiga nisbatan tayanish darajasi oshib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2023-yilda yer solig‘i tushumlarining jami hajmi 268 024 mlrd so‘mga yetgani e’tiborga molik bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 2,5 barobar o‘sishni anglatadi (2-jadval).

2024-yilda esa yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan tushumlar 338 285 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 70 261 mlrd so‘mga o‘sgan. Shuningdek, 2024-yilda qo‘shimcha hisoblangan yer solig‘i summasi 67 542 mlrd so‘mni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishda qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlashning muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tumanlar kesimida tahlil qilinganda, yer solig‘i tushumlarining hududiy farqlanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, Urgut tumanida 2020-yilda 12 030 mlrd so‘m yer solig‘i hisoblangan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 44 166 mlrd so‘mga yetgan. Bu 4 yil ichida qariyb 3,7 barobar o‘sishni tashkil etadi. Shuningdek, Uchtepa tumanida 2020-yilda 8 939 mlrd so‘m bo‘lgan yer solig‘i tushumlari 2024-yilga kelib 20 109 mlrd so‘mga oshgan. Qarshi, Buxoro, Samarqand va Farg‘ona iqtisodiy hududlariga yaqin bo‘lgan tumanlarda ham yer solig‘i tushumlarining yuqori sur’atlarda o‘sgani kuzatiladi.

Qo‘shimcha hisoblangan yer solig‘i summalari tahlili ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Masalan, 2023-yilda

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

jami 52 003 mlrd so‘m qo‘shimcha yer solig‘i hisoblangan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 67 542 mlrd so‘mga yetgan. Ayniqsa, Urgut (9 275 mlrd so‘m), Qarshi (6 379 mlrd so‘m), Jarqo‘rg‘on (5 466 mlrd so‘m) va Bag‘dod (4 918 mlrd so‘m) tumanlarida qo‘shimcha hisoblangan yer solig‘i summalari yuqori bo‘lib, bu yer resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va yashirin soliq bazalarini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari yer solig‘i mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlashda muhim moliyaviy instrument ekanini, uning tushumlari hududlarning iqtisodiy faolligi va soliq ma’murchiligi samaradorligi bilan bevosita bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Mazkur jadval ma’lumotlari asosida quyidagi muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, 2020-2024-yillar davomida yer solig‘i tushumlarining barqaror va yuqori o‘sish tendensiyasi mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda ushbu soliq turining strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, qo‘shimcha hisoblangan yer solig‘i summalarining yil sayin ortib borishi soliq ma’murchiligini takomillashtirish, yer resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va yashirin soliq bazalarini aniqlash mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning samarali mexanizmi ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, yer solig‘i tushumlarining tumanlar kesimida sezilarli farqlanishi hududlarning iqtisodiy salohiyati, yerdan foydalanish intensivligi va soliq boshqaruvi samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlashda hududiy yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

2020-2024-yillar davomida yer solig‘i tushumlarining barqaror va yuqori o‘sish tendensiyasi, qo‘shimcha hisoblangan summalarning yilma-yil ortib borishi hamda tushumlarning tumanlar kesimida farqlanishi yer solig‘ini mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega soliq turi sifatida namoyon etmoqda. Ushbu holat soliq ma’murchiligini takomillashtirish, yer resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va yashirin soliq bazalarini aniqlash mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning samarali mexanizmi ekanini tasdiqlashi bilan birga, hududlarning iqtisodiy salohiyati va yerdan foydalanish xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial, hududiy yondashuvlarni joriy etish mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlashning muhim sharti ekanini ko‘rsatadi.

3-jadval

Hududiy soliq organlari va Kadastr agentligi hududiy organlari xarajatlarini mahalliy byudjetlarga o‘tkazish bo‘yicha hisob-kitoblar, optimallashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumot[3]

Hududiy organlar nomlanishi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil		Farqi	
	Haqiqatda	Haqiqatda	Haqiqatda	Haqiqatda	2023 yil shartlarida	Haqiqatda	summa	%
Hududiy soliq organlari	1 043 939	1 158 450	1 285 556	1 426 645	1 403 953	1 564 702	-22 692	-1,6
ish haqi xarajatlari	982 598	1 091 776	1 213 084	1 347 872	1 326 755	1 488 814	-21 117	-1,6
boshqa xarajatlar	61 340	66 674	72 472	78 774	77 198	75 887	-1 575	-2,0
Kadastr agentligining hududiy organlari	22 798	25 229	27 930	30 821	30 513	32 057	-308	-1,0
ish haqi xarajatlari	21 878	24 309	27 010	30 011	29 711	31 053	-300	-1,0
boshqa xarajatlar	920	920	920	810	802	1 004	-8	-1,0
JAMI:	**1 066 736**	**1 183 679**	**1 313 486**	1 457 466	1 434 466	1 596 759	-23 000	-1,6

Jadval ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, 2020-2024-yillar davomida hududiy soliq organlari hamda Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash bilan bog‘liq byudjet xarajatlarining dinamikasini aks ettiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, mazkur xarajatlar muttasil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu inflyatsiya darajasi, mehnatga haq to‘lash tizimidagi o‘zgarishlar hamda funksional vazifalar hajmining kengayishi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududiy soliq organlari va Kadastr agentligi hududiy organlarini

3 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni mahalliy byudjetlarga o‘tkazish hamda ularni optimallashtirish natijasida byudjet xarajatlarini qisqartirish va moliyaviy samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud. Aniqroq aytganda, 2024-yilda jami 23 000 mln so‘m yoki 1,6 foiz miqdorida xarajatlarni tejab qolish imkoniyati aniqlangan bo‘lib, bu davlat moliyasini boshqarishda markazlashtirishdan nomarkazlashtirishga o‘tish jarayonlarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini ilmiy asoslaydi. Ushbu yondashuv mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, xarajatlar ustidan nazoratni oshirish hamda byudjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xususan, hududiy soliq organlari bo‘yicha umumiy xarajatlar 2020-yilda 1 043 939 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 1 426 645 mln so‘mga yetgan. 2024 yil uchun 2023-yil shartlarida hisoblanganda ushbu xarajatlar 1 403 953 mln so‘mni tashkil etishi mumkin edi, ammo amalda 1 564 702 mln so‘m sarflangan. Shu bilan birga, hisob-kitoblar asosida 2024-yilda 2023-yil shartlarini qo‘llash orqali 22 692 mln so‘m miqdorida xarajatlarni qisqartirish (1,6 foiz) imkoniyati mavjudligi aniqlangan (3-jadval).

Tarkibiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, hududiy soliq organlari xarajatlarining asosiy qismi ish haqi xarajatlariga to‘g‘ri kelib, ularning ulushi 90 foizdan ortiqni tashkil etadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ham 21 117 mln so‘m (1,6 foiz) miqdorida optimallashtirish imkoniyati mavjud. Boshqa xarajatlar bo‘yicha esa 1 575 mln so‘m yoki 2,0 foizga teng tejam zaxiralari aniqlangan. Kadastr agentligining hududiy organlari bo‘yicha ham shunga o‘xshash tendensiyalar kuzatiladi. Jumladan, 2020-yilda 22 798 mln so‘m bo‘lgan xarajatlar 2023-yilda 30 821 mln so‘mga yetgan. 2024-yilda 2023-yil shartlarida hisoblangan xarajatlar 30 513 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, amalda 32 057 mln so‘m sarflangan. Ushbu farq 308 mln so‘m yoki 1,0 foizni tashkil etib, mazkur yo‘nalishda ham xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Umumiy hisobda, hududiy soliq organlari va Kadastr agentligi hududiy organlari bo‘yicha xarajatlar jami 2024-yilda 2023-yil shartlariga nisbatan 23 000 mln so‘mga (1,6 foiz) kamaytirilishi mumkin bo‘lgan.

O‘tkazilgan tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki 2020-2024-yillarda hududiy soliq organlari hamda Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash bilan bog‘liq byudjet xarajatlarida barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, 2024-yilda 2023-yil shartlarini qo‘llash orqali ushbu xarajatlarni qisman optimallashtirish va jami 23 mlrd so‘mga yaqin mablag‘ni tejab qolish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Xarajatlarning asosiy qismi ish haqi xarajatlariga to‘g‘ri kelayotgani inobatga olinsa, mehnatga haq to‘lash va boshqa ma’muriy xarajatlarni maqbullashtirish orqali byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Ushbu natijalar hududiy soliq organlari va Kadastr agentligi hududiy organlari faoliyatini moliyaviy jihatdan rag‘batlantirish hamda byudjet xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha takliflarning iqtisodiy asosli ekanini tasdiqlaydi.

Jadval ma’lumotlari tahlili 2020-2024-yillar davomida hududiy soliq organlari hamda Kadastr agentligi hududiy organlarini saqlash bilan bog‘liq byudjet xarajatlarining barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur o‘sish, avvalo, inflyatsiya jarayonlari, mehnatga haq to‘lash tizimida amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, davlat organlarining funksional vazifalari hajmining kengayishi bilan izohlanadi. Xususan, 2024-yilda ushbu yo‘nalishda 23 000 mln so‘m yoki 1,6 foiz miqdorida byudjet mablag‘larini tejab qolish imkoniyati aniqlangan bo‘lib, bu davlat moliyaviy boshqaruvida markazlashtirilgan modeldan nomarkazlashtirilgan boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini tasdiqlaydi.

4-jadval

Mahalliy byudjetga soliq turlari bo‘yicha tushumlar, yig‘uvchanlik darajasi va qo‘shimcha hisoblangan soliqlar to‘g‘risida ma’lumot (mlrd. so‘mda)[4]

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	Shundan qo‘shimcha hisoblangan
Hisoblangan soliqlar - jami	15 711,7	18 331,9	21 115,1	26 182,1	30 373,9	1 102
aylanmadan olinadigan soliq	1 408,1	1 707,1	2 575,5	2 467,5	2 956,8	148
xususiy sektordagi ishlovchilardan daromad solig‘i	10 681,1	11 888,0	13 509,1	17 040,4	19 205,3	601
yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan soliq	315,0	432,4	426,7	430,9	539,6	27
jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	843,5	1 004,6	1 106,5	1 667,0	2 554,6	105

4 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

jismoniy shaxslardan yer solig‘i	1 241,9	1 619,1	2 138,2	3 216,6	3 486,3	147
noruda materiallar bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	685,9	920,3	584,6	497,1	359,0	11
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	536,3	760,3	774,5	862,7	1 272,4	64
Haqiqatda tushumlar - jami	**14 644,0**	**17 222,1**	**19 881,0**	**24 814,2**	**29 430,8**	x
aylanmadan olinadigan soliq	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407,3	2 829	x
xususiy sektordagi ishlovchilardan daromad solig‘i	10 076,5	11 321,9	12 865,8	16 385,0	18 854,0	x
yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan soliq	286,3	396,7	393,3	399,0	507	x
jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	733,4	881,2	974,9	1 488,4	2 379,2	x
jismoniy shaxslardan yer solig‘i	1 079,9	1 420,3	1 883,9	2 872,0	3 351,6	x
noruda materiallar bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	635,1	868,2	546,3	471,1	337,1	x
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791,4	1 172,7	x
Yig‘uvchanlik darajasi - jami	**93,2**	**93,9**	**94,2**	**94,8**	**96,9**	x
aylanmadan olinadigan soliq	96,2	96,6	97,6	97,6	95,7	x
xususiy sektordagi ishlovchilardan daromad solig‘i	94,3	95,2	95,2	96,2	98,2	x
yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan soliq	90,9	91,7	92,2	92,6	93,9	x
jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	87,0	87,7	88,1	89,3	93,1	x
jismoniy shaxslardan yer solig‘i	87,0	87,7	88,1	89,3	96,1	x
noruda materiallar bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	92,6	94,3	93,5	94,8	93,9	x
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	89,3	90,0	90,9	91,7	92,2	x

2020-2024-yillar davomida soliq turlari bo‘yicha hisoblangan soliqlar hajmi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, hisoblangan soliqlar jami 2020-yilda 15 711,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 30 373,9 mlrd so‘mga yetgan. Bu 5 yil davomida qariyb 2 baravar o‘sishni ko‘rsatadi (4-jadval).

Soliq tushumlarining asosiy ulushi xususiy sektordagi ishlovchilardan undiriladigan daromad solig‘i hissasiga to‘g‘ri kelib, ushbu soliq turi bo‘yicha hisoblangan summalar 2020-yilda 10 681,1 mlrd so‘mdan 2024-yilda 19 205,3 mlrd so‘mgacha oshgan. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha ham sezilarli o‘sish kuzatilib, bu soliq bazasining kengayganidan dalolat beradi.

Haqiqatda tushgan soliqlar ham mos ravishda o‘sib borgan. Jumladan, 2020-yilda 14 644,0 mlrd so‘m bo‘lgan soliq tushumlari 2024-yilda 29 430,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. Hisoblangan va haqiqatda tushgan soliqlar o‘rtasidagi farq soliq yig‘uvchanlik darajasi orqali baholangan.

Soliq yig‘uvchanlik darajasi jami bo‘yicha 2020-yilda 93,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 96,9 foizga yetgan. Ayniqsa, xususiy sektordagi ishlovchilardan daromad solig‘i bo‘yicha yig‘uvchanlik 98,2 foizgacha oshgani soliq ma’muriyatchiligining samaradorligi ortganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha yig‘uvchanlik darajasida ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan.

2024-yilda qo‘shimcha hisob-kitoblar natijasida jami 1 102 mlrd so‘m miqdorida qo‘shimcha soliq bazasi aniqlangan bo‘lib, uning asosiy qismi xususiy sektordagi ishlovchilardan daromad solig‘i hamda mol-mulk va yer soliqlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, 2020-2024-yillarda soliq tushumlari

hajmi va soliq yig‘uvchanlik darajasida barqaror o‘sish ta’minlanganini ko‘rsatadi. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, yashirin soliq bazalarini aniqlash va soliq intizomini kuchaytirish choralari natijasida soliq yig‘uvchanligi sezilarli darajada oshgan.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yilda qo‘shimcha 1,1 trln so‘mga yaqin soliq tushumlarini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lgan bo‘lib, bu soliq bazasini kengaytirish va samarali nazorat choralari hisobiga erishilgan. Ushbu natijalar soliq organlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflarning iqtisodiy jihatdan asosli ekanini tasdiqlaydi.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Sirdaryo viloyatida 2020-2024-yillar davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq to‘lovchilar soni va mazkur soliq turidan tushumlar barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu holat hududda iqtisodiy faollikning kengayishi, rasmiy bandlik darajasining oshishi hamda “yashirin” iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi.

2020-yilda Sirdaryo viloyatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari soni 102 196 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 108 719 nafarga yetgan. 2022-yilda soliq to‘lovchilar soni 116 902 nafarni, 2023-yilda 126 381 nafarni tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilga kelib 135 583 nafarga yetgan. Ushbu davrda soliq to‘lovchilar soni 33 387 nafarga yoki qariyb 32,7 foizga oshgan bo‘lib, bu aholining mehnat bozoridagi ishtirok darajasi oshganini ko‘rsatadi (5-jadval).

5-jadval

Sirdaryo viloyati bo‘yicha jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha soliq to‘lovchilar soni va tushumlar to‘g‘risida ma’lumot[5]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birliklari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
I. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari soni	**Nafar, foiz, mln so‘m**	**102 196**	**108 719**	**116 902**	**126 381**	**135 583**
shundan, hisobot yilida qo‘shimcha to‘lovchilar	nafar	3 066	4 892	5 845	6 951	10 170
Salmog‘i	%	3,0	4,5	5,0	5,5	7,5
II. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari	**Mln. so‘m**	**247 250**	**305 377**	**369 304**	**474 170**	**566 038**
shundan, hisobot yilida qo‘shimcha to‘lovchilar hisobiga	Mln. so‘m	13 200	17 200	18 500	24 500	30 000
Salmog‘i	%	5,3	5,6	5,0	5,2	5,3

Hisobot yillarida qo‘shimcha aniqlangan soliq to‘lovchilar sonining o‘sishi e’tiborga molikdir. Jumladan, 2020-yilda 3 066 nafar qo‘shimcha to‘lovchi aniqlangan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 4 892 nafarga, 2022-yilda 5 845 nafarga, 2023-yilda 6 951 nafarga yetgan. 2024-yilda esa qo‘shimcha to‘lovchilar soni 10 170 nafarni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 3,3 barobarga oshgan. Natijada, qo‘shimcha to‘lovchilarning umumiy soliq to‘lovchilar sonidagi salmog‘i 2020-yildagi 3,0 foizdan 2024-yilda 7,5 foizgacha o‘sgan. Bu esa soliq ma’muriychiligi samaradorligi sezilarli darajada oshganini anglatadi.

Daromad solig‘i tushumlari dinamikasi ham soliq to‘lovchilar sonidagi o‘sish bilan uyg‘un ravishda rivojlangan. 2020-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari 247 250 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 305 377 mln so‘mga, 2022-yilda 369 304 mln so‘mga yetgan. 2023-yilda daromad solig‘i tushumlari 474 170 mln so‘mni tashkil etib, 2024-yilda 566 038 mln so‘mgacha oshgan. Shu tariqa, 2020–2024-yillar davomida jismoniy shaxslar daromad solig‘i tushumlari 318 788 mln so‘mga yoki qariyb 2,3 barobarga o‘sgan. Qo‘shimcha aniqlangan soliq to‘lovchilar hisobiga to‘langan daromad solig‘i summalari ham izchil o‘sishga ega. Jumladan, 2020-yilda ushbu manba hisobiga 13 200 mln so‘m tushum ta’minlangan bo‘lsa, 2021-yilda 17 200 mln so‘m, 2022-yilda 18 500 mln so‘m, 2023-yilda 24 500 mln so‘m tushum qayd etilgan. 2024-yilda esa qo‘shimcha to‘lovchilar hisobiga 30 000 mln so‘m daromad solig‘i undirilgan. Bu ko‘rsatkichning jami daromad

5 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

solig‘i tushumlaridagi salmog‘i 2020-yilda 5,3 foizni, 2024-yilda esa 5,3 foizni tashkil etgan bo‘lib, nisbiy barqarorlik saqlangan holda absolyut hajmda sezilarli o‘sishga erishilgan. Umuman olganda, jadval ma’lumotlari Sirdaryo viloyatida jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha soliq bazasi kengayib borayotganini, soliq ma’murchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mehnat bozorini legallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida Sirdaryo viloyatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq to‘lovchilar sonining barqaror o‘sishi va qo‘shimcha aniqlangan to‘lovchilar hisobiga tushumlar hajmining sezilarli darajada oshishi soliq ma’murchiligini takomillashtirish hamda “yashirin” iqtisodiyotni qisqartirish mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashning samarali mexanizmi ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Mazkur soliq turi hududiy byudjetlar barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning imkoniyatlaridan kompleks va tizimli foydalanish kelgusida ham moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi

Mazkur soliq turi hududiy byudjetlar barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning imkoniyatlaridan kompleks va tizimli foydalanish kelgusida ham moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

2020-2024-yillar davomida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xarajatlarini optimallashtirish bilan bir qatorda, ushbu xarajatlarning ijtimoiy samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2024-yilda jami 18 023 mln so‘m miqdorida xarajatlarni tejash imkoniyati mavjud bo‘lgan holda, samaradorlik natijaviy ko‘rsatkichi 7,6 foizga yetgan, ijobiy hal etilgan murojaatlar ulushi 26,0 foizga oshgan hamda bandlik va kambag‘allikni qisqartirish ko‘rsatkichlarida barqaror ijobiy dinamika ta’minlangan. Bu holat mahalla institutini moliyalashtirishda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish mexanizmlarini qo‘llash, xarajatlar ustidan samarali nazorat o‘rnatish va resurslarni maqsadli yo‘naltirish mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

6-jadval

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xarajatlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot[6]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birliklari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil		Farq
						2023-yil shartlarida	haqiqatda	
JAMI	mln.so‘m	783 054	868 237	962 727	760 408	742 385	874 469	-18 023
I. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari joriy xarajatlari	mln.so‘m	758 985	841 495	933 013	741 556	**724 004**	**852 789**	**-17 552**
ish haqi	mln.so‘m	683 536	759 484	843 871	697 568	680 896	802 203	-16 672
boshqa xarajatlar	mln.so‘m	75 450	82 010	89 142	43 988	43 108	50 586	-880
Moddiy-texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari	**mln.so‘m**	**24 068**	**26 743**	**29 714**	**18 852**	**18 381**	**21 680**	**-471**
Yil oxirida byudjet tomonidan to‘lanmay qolgan mablag‘lar	**mln.so‘m**	**23 492**	**27 784**	**33 695**	**28 895**	**14 105**	**16 615**	**-**
salmog‘i	%	3,00	3,20	3,50	3,80	1,90	1,90	-
II. Samaradorlik natijaviy ko‘rsatkichlar	**%**	**x**	**-0,3**	**0,1**	**6,3**	**4,5**	**7,6**	**3,1**

6 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-137656-son dalolatnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan xarajatning o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	%	x	10,9	10,9	-21,0	-2,4	15,0	-
ijobiy hal etilgan murojaatlarning jamidagi salmog‘ining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	%	x	4,5	5,6	6,2	7,0	26,0	-
fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy tadbirlar sonining o‘zgarishi	%	x	5,0	4,5	3,0	12,2	20,0	-
bandlikning o‘zgarishi	%	x	2,0	4,5	5,9	5,5	12,0	-
kambag‘allik ro‘yxatidan chiqarilgan oilalar sonining o‘zgarishi	%	x	2,0	3,0	4,5	4,6	5,0	-

Tahlil qilingan davrda xarajatlar dinamikasi bilan bir qatorda natijaviy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangani kuzatiladi. 2020-2024-yillar davomida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini moliyalashtirish hajmi, xarajatlar tarkibi hamda ushbu xarajatlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligidagi o‘zgarishlarni tizimli ravishda baholash imkonini beradi.

2020-yilda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari uchun jami xarajatlar 783 054 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 868 237 mln so‘mga, 2022-yilda esa 962 727 mln so‘mgacha oshgan. Bu o‘sish mahallalarga yuklatilgan vazifalar ko‘lamining kengayishi, ijtimoiy himoya, bandlik va aholi bilan ishlash funksiyalarining kuchayishi bilan izohlanadi. Biroq 2023-yilda jami xarajatlar 760 408 mln so‘mgacha pasaygan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 202 319 mln so‘mga kamayishni tashkil etgan. 2024-yilda esa xarajatlar 2023-yil shartlarida 742 385 mln so‘m deb rejalashtirilgan bo‘lsa-da, haqiqatda 874 469 mln so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, hisob-kitoblarga ko‘ra, jami xarajatlar bo‘yicha 18 023 mln so‘m miqdorida optimallashtirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan (6-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari hududlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, mavjud soliq salohiyatidan samarali foydalanish, soliq ma’murchiligi natijadorligini oshirish hamda mahalliy darajada fiskal manfaatdorlikni kuchaytirish o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlar ekanligini ko‘rsatdi. Mahalliy byudjetlarning barqaror daromad bazasini shakllantirish faqat soliq tushumlari hajmini ko‘paytirish bilan emas, balki soliq solish obyektlarini to‘liq hisobga olish, yashirin fiskal zaxiralarni aniqlash, soliqlar yig‘iluvchanligini yaxshilash va byudjet xarajatlarini oqilona boshqarish bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida 2020-2024-yillarga oid iqtisodiy-statistik ma’lumotlar asosida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishga qaratilgan uchta ustuvor yo‘nalishning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari baholandi. Olingan natijalar mahalliy soliqlar bo‘yicha moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish, hududiy organlarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda norasmiy bandlikni rasmiylashtirish orqali qo‘shimcha soliq tushumlarini shakllantirish mahalliy byudjetlar daromad salohiyatini kengaytirishning muhim omillari ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha mahalliy darajada fiskal manfaatdorlikni kuchaytirish soliq bazasini kengaytirishning muhim moliyaviy-iqtisodiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda qamrab olingan 14 ta tuman va shaharda 2020-2024-yillarda hisoblangan mol-mulk solig‘i summasi 64 437 mln so‘mdan 196 272 mln so‘mga, yer solig‘i summasi esa 107 831 mln so‘mdan 338 285 mln so‘mga oshgan. Natijada mazkur ikki soliq turi bo‘yicha jami hisoblangan summalar 172 268 mln so‘mdan 534

557 mln so‘mga yetib, 3,1 baravarga ko‘paygan. Ushbu ko‘rsatkichlar hududlarda soliq bazasini aniqlashtirish va qo‘shimcha soliq majburiyatlarini hisoblash imkoniyatlari kengayganligini ko‘rsatadi.

Mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha 2023-yilda jami 77 025 mln so‘m, 2024-yilda esa 106 207 mln so‘m qo‘shimcha soliq summalari hisoblanganligi mahalliy darajada mavjud fiskal zaxiralarni aniqlash muhimligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha undirilgan mablag‘larning belgilangan qismini mahalla byudjetlariga yo‘naltirish, mahallalarni soliq solish obyektlarini aniqlash va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirishdan moliyaviy manfaatdor qilish mexanizmini izchil takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallalarning ishtiroki vakolatli soliq organlarining qonuniy vakolatlarini almashtirmasligi, balki axborot almashinuvi va hamkorlik orqali ularni to‘ldirishi lozim.

Ikkinchidan, hududiy soliq va kadastr organlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda hududiy fiskal mas’uliyatni kuchaytirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tegishli organlarni saqlash xarajatlari 2020-yildagi 1 066 736 mln so‘mdan 2024-yilda 1 596 759 mln so‘mga oshgan. Shu bilan birga, 2023-yil xarajatlarining amaldagi va muqobil hisob-kitob ko‘rsatkichlarini taqqoslash asosida 23 mlrd so‘mlik potensial optimallashtirish imkoniyati aniqlangan. Mazkur ko‘rsatkich amalda erishilgan byudjet tejalishini emas, balki xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha hisob-kitob natijasini ifodalaydi.

Shundan kelib chiqib, hududiy organlar faoliyatini moliyalashtirish manbalarini belgilashda ularning funksional vazifalari, xarajat majburiyatlari, hududiy soliq salohiyati va erishilayotgan fiskal natijalar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash zarur. Bunda moliyalashtirish mexanizmini o‘zgartirishning samaradorligi nafaqat xarajatlarni qayta taqsimlash, balki boshqaruv natijadorligi, soliqlar yig‘iluvchanligi va byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi bilan baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini mustahkamlashning muhim amaliy shartlaridan biridir. Tadqiqotda tahlil qilingan ko‘rsatkichlarga ko‘ra, 2020-2024-yillarda hisoblangan soliqlar hajmi 15 711,7 mlrd so‘mdan 30 373,9 mlrd so‘mga, amalda undirilgan soliq tushumlari esa 14 644,0 mlrd so‘mdan 29 430,8 mlrd so‘mga yetgan. Mazkur davrda soliqlar yig‘iluvchanligi 93,2 foizdan 96,9 foizga oshib, 3,7 foiz punktlik ijobiy o‘zgarish qayd etilgan. Ushbu natijalar soliq majburiyatlarini bajarish darajasi yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda hisoblangan soliqlar bilan amalda undirilgan tushumlar o‘rtasida 943,1 mlrd so‘mlik farq mavjudligi soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlar saqlanib qolayotganligini bildiradi. Shu sababli mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini baholashda hisoblangan soliqlar hajmi, amalda undirilgan mablag‘lar, yig‘iluvchanlik darajasi va qo‘shimcha hisoblangan soliq majburiyatlarini o‘zaro farqlagan holda kompleks monitoring qilish tizimini rivojlantirish zarur.

To‘rtinchidan, norasmiy bandlikni rasmiylashtirish va qo‘shimcha soliq to‘lovchilarni fiskal tizimga jalb etish jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. Sirdaryo viloyatida 2020-2024-yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari soni 102 196 nafardan 135 583 nafarga, mazkur soliq turi bo‘yicha tushumlar esa 247 250 mln so‘mdan 566 038 mln so‘mga oshgan. Qo‘shimcha hisobga olingan soliq to‘lovchilar soni 2024-yilda 10 170 nafarni tashkil etib, ular hisobiga shakllangan daromad solig‘i tushumlari 30 000 mln so‘mga yetgan. Ushbu mablag‘ viloyat bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i jami tushumlarining 5,3 foizini tashkil etgan.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, norasmiy bandlikni rasmiylashtirish natijasida qo‘shimcha soliq hisobiga olingan shaxslar bo‘yicha shakllanadigan daromad solig‘i tushumlarining muayyan qismini mahalla byudjetlarida qoldirish mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv mahallalarning aholi bandligini kengaytirish, rasmiy mehnat faoliyatini rag‘batlantirish va hududiy soliq bazasini mustahkamlashdan manfaatdorligini kuchaytirishi mumkin. Bunda yaratilgan yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tgan soliq to‘lovchilar va amalda undirilgan soliq tushumlari alohida natijaviylik ko‘rsatkichlari sifatida hisobga olinishi zarur.

Beshinchidan, tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini uchta o‘zaro bog‘liq tarkibiy yo‘nalishda takomillashtirish taklif etiladi. Birinchi yo‘nalish mahalliy soliqlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirishdan mahallalarning moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirishni, ikkinchi yo‘nalish hududiy boshqaruv organlarini moliyalashtirishda fiskal mas’uliyat va xarajatlar natijadorligini ta’minlashni, uchinchi yo‘nalish esa norasmiy bandlikni rasmiylashtirish orqali qo‘shimcha daromad solig‘i manbalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yo‘nalishlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish, fiskal zaxiralarni aniqlash va hududiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirishning samarali modeli soliq bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini undirish natijadorligini yaxshilash, byudjet xarajatlarini maqbullashtirish va mahalliy darajada moliyaviy manfaatdorlikni kuchaytirish mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuvni amaliyotda rivojlantirish hududlarning mavjud fiskal imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanish, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash va davlat moliyasini boshqarish samaradorligini

oshirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi «“Mahalla byudjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-458-son qarori. https://lex.uz/docs/-6326672
3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida» O‘RQ-886-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-6707765
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024-yil 14-mart kuni Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi materiallari. «Prezident: Bu yil iqtisodiyotimizda hayotiy uyg‘onish va yuksalish yili bo‘ladi». – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 14.03.2024. https://president.uz/oz/lists/view/7087
5. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959.
6. Oates W.E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
7. Tiebout Ch.M. A Pure Theory of Local Expenditures // Journal of Political Economy. – 1956. – Vol. 64, No. 5. – P. 416–424. DOI: https://doi.org/10.1086/257839
8. Bahl R., Bird R.M. Subnational Taxes in Developing Countries: The Way Forward // Public Budgeting & Finance. – 2008. – Vol. 28, No. 4. – P. 1–25. DOI: https://doi.org/10.1111/j.1540-5850.2008.00914.x
9. Shah A. (ed.). Local Budgeting. – Washington, DC: The World Bank, 2007.
10. Boadway R.W., Roberts S.S., Shah A.M. Fiscal Federalism: Dimensions of Tax Reform in Developing Countries. – Washington, DC: The World Bank, 1994. – Policy Research Working Paper No. 1385. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/470251468766794092
11. Alm J., Martinez-Vazquez J., Schneider F. Sizing the Problem of the Hard-to-Tax // Contributions to Economic Analysis. –2004. – Vol. 268. – P. 11–75. DOI: https://doi.org/10.1016/S0573-8555(04)68802-X
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-458-son «“Mahalla byudjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. — 1-band, 3-band va ilova.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6707765.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024-yil 14-mart kuni Sayxunobod tumanida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi bo‘yicha rasmiy axborot. «Prezident: Bu yil iqtisodiyotimizda hayotiy uyg‘onish va yuksalish yili bo‘ladi». – 14.03.2024. https://president.uz/oz/lists/view/7087.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100